

## Jizzax viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2026 yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Jizzax tumani qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026 yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 4 452,5 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 4 219,1 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 123,5 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 109,9 mlrd so'mni tashkil qildi.

### Jizzax viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



### II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2026 yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Baxmal (764,7 mlrd so'm), G'allaorol (618,2 mlrd so'm), Zomin (569,3 mlrd so'm), Sharof Rashidov (458,5 mlrd so'm), Forish (449,9 mlrd so'm) va Do'stlik (348,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiobod tumani (111,1 mlrd so'm), Jizzax shahar (119,8 mlrd so'm) va Mirzacho'l tumanlarini (141,6 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
<b>Jizzax viloyati</b>	4452,5	104,2
Jizzax shahar	119,8	109,5
Arnasoy tumani	186,7	114,4
Baxmal tumani	764,7	105,6
G'allaorol tumani	618,2	102,9
Sharof Rashidov tumani	458,5	101,1
Do'stlik tumani	348,2	104,7
Zomin tumani	569,3	103,0
Zarbdor tumani	191,3	108,1
Mirzacho'l tumani	141,6	107,0
Zafarobod tumani	278,7	100,4
Paxtakor tumani	214,5	109,1
Forish tumani	449,9	100,4
Yangiobod tumani	111,1	103,3

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Arnasoy (114,4), Jiaax shahri (109,5 %), Paxtakor (109,1 %), Zarbdor (108,1 %), Mirzacho'l (107,0 %), Baxmal (105,6 %) va Do'stlik (104,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Zafarobod (100,4 %), Forish (100,4 %) va Sharof Rashidov (101,1 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

### III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2026 yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 4 117,5 mlrd so'mni yoki 2025 yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 156,0 mlrd so'mni (151,7 %), chorvachilik mahsulotlari 3 961,5 mlrd so'mni (101,9 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Baxmal (738,0 mlrd so'm), G'allaorol (594,3 mlrd so'm), Zomin (554,4 mlrd so'm) va Sharof Rashidov (435,5 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiobod (108,3 mlrd so'm) va Jizzax shahar (109,7 mlrd so'm) tumanini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Arnasoy (110,5 %), Paxtakor (108,4 %), Zarbdor (107,0 %), Mirzacho'l (106,0 %), Baxmal (103,5 %) va Zomin (103,1 %) tumanlarida qayd etildi. Forish (100,8 %), Sharof Rashidov (100,9 %) tumanlari va Jizzax shahrida (101,1 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

## Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 85,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,9 % i fermer xo'jaliklariga, 8,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

### Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Baxmal (730,0 mlrd so'm), G'allaorol (570,0 mlrd so'm), Zomin (540,5 mlrd so'm) Sharof Rashidov (418,3 mlrd so'm) va Do'stlik (323,9 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Jizzax shahri (104,6 mlrd so'm), Yangiobod tumanlarini (106,5 mlrd so'm) va Mirzacho'l (122,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Arnasoy (106,3 %), Paxtakor (106,0 %), Zarbdor (103,3 %), Baxmal (103,1 %) tumanlarida qayd etildi. Sharof Rashidov (100,2 %), Forish (100,5 %), G'allaorol (100,8 %) va Jizzax shahrida (101,0 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2026 yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 39,5 ming tonna go'sht, 134,0 ming tonna sut, 68,9 mln dona tuxum, 379 dona qorako'l teri yetishtirildi va 3,4 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,8 % ni, sog'ib olingan sut – 104,2 % ni, olingan tuxum – 108,6 % ni, olingan qorako'l teri – 53,2 % ni hamda ovlangan baliqlar – 102,9 % ni tashkil qildi.

2025 yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 3,4 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 4,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 3,7 % i fermer xo'jaliklari, 95,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**2026 yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi  
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	<b>Yanvar-mart 2026 y.</b>	<b>O'sish sur'ati % da</b>
<b>Go'sht (tirik vaznda), ming tonna</b>	<b>39,5</b>	<b>100,8</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1,3	120,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	36,4	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,8	93,7
<b>Sut, ming tonna</b>	<b>134,0</b>	<b>104,2</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	4,9	12,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	127,6	103
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,5	188,7
<b>Tuxum, mln. Dona</b>	<b>68,9</b>	<b>108,6</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1,4	31,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	31,0	105,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	36,5	122,9
<b>Qorako'l teri, dona</b>	<b>379</b>	<b>53,2</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	157	27,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	-	-
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	222	155,2
<b>Baliq, ming tonna</b>	<b>3,4</b>	<b>102,9</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,2	86,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,5	116,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,7	102,3

Shu bilan birga, olingan tuxumning 2,0 % i fermer xo'jaliklariga, 45,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 53,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 41,4 % i fermer xo'jaliklariga, 58,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 6,3 % i fermer xo'jaliklariga, 14,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 79,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.



### Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	<b>Go'sht</b> (tirik vaznda), tonna	<b>Sut,</b> tonna	<b>Tuxum,</b> ming dona
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>39 518,7</b>	<b>134 016,6</b>	<b>68 941,0</b>
Jizzax shahar	1 215,9	1 969,3	1 475,3
Arnasoy tumani	1 608,4	5 788,0	1 379,2
Baxmal tumani	7 461,1	24 099,6	4 477,5
G'allaorol tumani	5 406,2	18 773,3	36 904,8
Sharof Rashidov tumani	4 381,3	12 807,8	1 147,5
Do'stlik tumani	3 328,4	10 608,6	956,8
Zomin tumani	5 309,5	18 367,7	15 617,4
Zarbdor tumani	1 569,8	6 839,8	1 601,3
Mirzacho'l tumani	1 072,9	5 749,9	705,9
Zafarobod tumani	2 076,7	6 397,6	901,4
Paxtakor tumani	1 688,6	8 665,0	1 503,7
Forish tumani	3 683,1	6 988,6	1 393,2
Yangiobod tumani	716,8	6 961,6	877,0

#### Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi G'allaorol (24,3 mlrd so'm), Sharof Rashidov (17,1 mlrd so'm), Zarbdor (16,8 mlrd so'm), Arnasoy (15,5 mlrd so'm) va Paxtakor (15,5 mlrd so'm), tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiobod (1,8 mlrd so'm) Forish (2,3 mlrd so'm) tumanlari va Jizzax shahrida (5,1 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Zomin (231,1 %), Arnasoy (173,3 %), Zarbdor (156,7 %), G'allaorol (156,0 %) va Baxmal (151,7 %) tumanlarida qayd etildi. Jizzax shahrida (103,0 %) esa aksincha nisbatan o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.



### Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1 537,1</b>	<b>151,7</b>
Jizzax shahri	252,9	99,9
Arnasoy tumani	200,0	321,5
Baxmal tumani	-	-
G'allaorol tumani	128,9	210,3
Sharof Rashidov tumani	384,9	94,1
Do'stlik tumani	37,0	122,6
Zomin tumani	320,5	832,5
Zarbdor tumani	66,4	271,0
Mirzacho'l tumani	33,1	143,1
Zafarobod tumani	14,6	96,1
Paxtakor tumani	74,4	104,3
Forish tumani	-	-
Yangiobod tumani	24,4	100,0

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Sharof Rashidov tumani (25,0 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Zomin (20,9 %), Jizzax shahri (16,5 %), Arnasoy (13,0 %), G'allaorol (8,4 %) va Paxtakor (4,8 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Zafarobod (0,9 %), Yangiobod (1,6 %) va Mirzacho'l tumanlarida (2,2 %) kuzatildi.

2025 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Zomin (8,3 m.), Arnasoy (3,2 m.), Zarbdor (2,7 m.), G'allaorol (2,7 m.) tumanlarida qayd etildi. Sharof Rashidov (94,1), Zafarobod (96,1), Jizzax shahri (99,9) Yangiobod (100,0) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.



#### IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026 yilning 1 aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 931,7 ming boshga yetdi, (2025 yilning 1 aprel holatiga nisbatan 2,7 % ga kam), sigirlar 299,4 ming boshga (8,3 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 449,1 ming boshga (1,5 % ga kam), parrandalar 3 525,1 ming boshga (5,9 % ga kam) yetdi.

#### 2026 yilning 1 aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
<b>Yirik shoxli qoramollar</b>	<b>931,7</b>	<b>97,3</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	63,1	96,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	833,2	97,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	35,4	102,2
<b>shundan sigirlar</b>	<b>299,4</b>	<b>108,3</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	21,3	99,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	264,5	108,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	13,6	123,9
<b>Qo'y va echkilar</b>	<b>2 449,1</b>	<b>98,5</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	431,3	96,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1557,6	97,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	460,2	105,7
<b>Otlar</b>	<b>32,3</b>	<b>99,4</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	6,4	81,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	18,4	99,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7,5	124,1
<b>Parrandalar</b>	<b>3 525,1</b>	<b>94,1</b>
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	128,1	40,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 704,4	99,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 692,6	98,5



2026 yilning 1 aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,8 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 89,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 7,1 % i fermer xo'jaliklariga, 88,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 4,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 17,6 % i fermer xo'jaliklariga, 63,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 18,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 3,6 % i fermer xo'jaliklariga, 48,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 48,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

### 2026 yilning 1 aprel holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>931 667</b>	<b>2 449 134</b>	<b>3 525 122</b>
Jizzax shahar	13 360	40 570	171 005
Arnasoy tumani	51 512	31 554	68 673
Baxmal tumani	187 094	354 675	237 458
G'allaorol tumani	177 499	342 145	1 337 572
Sharof Rashidov tumani	42 397	94 156	140 679
Do'stlik tumani	39 380	47 604	57 968
Zomin tumani	115 855	210 363	368 097
Zarbdor tumani	55 666	72 841	259 277
Mirzacho'l tumani	40 586	68 042	182 973
Zafarobod tumani	39 237	110 590	389 798
Paxtakor tumani	54 525	52 195	120 134
Forish tumani	68 793	912 101	140 888
Yangiobod tumani	45 763	112 298	50 600



## V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi** – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Fermer xo'jaligi** – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

**Dehqon xo'jaligi** – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

**Tomorqa xo'jaligi** – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar** – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.

**Mollar bosh soni** – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

**Go'sht yetishtirish** – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

**Sut yetishtirish** – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sultari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

**Tuxum yetishtirish** – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

### Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**  
S. Ismoilov  
72 221-54-00 (2610)

---